

MODEL AND INTERACTIVE METHODS OF DEVELOPING STUDENTS' CREATIVITY IN COMPOSITION

Tursunov Mannon O'tkir o'g'li

Faculty of Art History, 2nd Year Master's Student Fine Arts,
Chirchik State Pedagogical University,
tm2104650@gmail.com

Abstract

The article presents a model for developing students' creativity through modern methodologies in teaching composition. The four-block pedagogical model architecture (motivational-purposive, content, procedural-technological, result-diagnostic), didactic capabilities of interactive methods, and integration of Western and Eastern pedagogical approaches are covered. Research findings scientifically substantiate the role of interactive methods (visual framing, case studies, reconstruction, brainstorming, reflective discussion) in developing compositional creativity.

Keywords: Composition, creativity, pedagogical model, interactive methods, visual thinking, project-based learning, integrative approach.

Introduction

KOMPOZITSIYA FANIDA TALABALAR KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH MODEL VA INTERFAOL METODLAR

Tursunov Mannon O'tkir o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, San'atshunoslik fakulteti,
Tasviriy san'at yo'nalishi 2-kurs magistranti
tm2104650@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada kompozitsiya fanini zamonaviy metodikalar vositasida tashkil etish orqali talabalarning kreativligini rivojlantirish modeli taqdim etiladi. To'rt blokli pedagogik model (motivatsion-maqсадli, mazmuniy, protsessual-texnologik, natijaviy-diaagnostik) arxitekturasi, interfaol metodlarning didaktik imkoniyatlari hamda G'arb va Sharq pedagogik yondashuvlarining integratsiyasi masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijalarida interfaol metodlarning (vizual ramka, keys-stadi, rekonstruksiya, aqliy hujum, refleksiv muhokama) kompozitsion kreativlikni rivojlantirishdagi roli ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: kompozitsiya, kreativlik, pedagogik model, interfaol metodlar, vizual tafakkur, loyihaviy ta'lim, integrativ yondashuv.



Kirish

Bugungi kunda UNESCO va OECD xalqaro tadqiqotlarida tasviriy san'at ta'limi nafaqat estetik didni shakllantirish, balki kelajak mutaxassislarining nostandart qarorlar qabul qilish va vizual kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida tan olinmoqda. 1 O'zbekiston Respublikasida Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish sharoitida mustaqil va kreativ fikrlovchi kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi hamda tasviriy san'at sohasi samaradorligini oshirishga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlarda talabalarda kasbiy kompetensiyalarni innovatsion metodlar orqali shakllantirish vazifasi belgilangan. 2

Biroq mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida kompozitsiya darslarida talabalarning kreativ yondashuvini tizimli shakllantirish mexanizmlari va uni baholash mezonlari yetarlicha tadqiq etilmagan. An'anaviy ta'limda kompozitsiya ko'proq «tayyor qoidalarni o'rgatish» sifatida tashkil etilib, talabani kreativ izlanish jarayoni yetarlicha rivojlantirilmagan. 3 Bu esa mazkur yo'nalishda yangicha pedagogik model ishlab chiqish va interfaol metodlarni tizimli joriy etish zaruratini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi — kompozitsiya fanini zamonaviy metodikalar vositasida tashkil etish orqali talabalarning kreativligini rivojlantirish modelini ishlab chiqish hamda interfaol metodlarning didaktik samaradorligini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning nazariy asoslari va metodologiyasi

Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faoliyatga asoslangan yondashuv va integrativ yondashuv tashkil etadi. J.P.Gilfordning divergent fikrlash nazariyasi, E.P.Torrensning kreativlik komponentlari konsepsiyasi, L.S.Vigotskiyning ijodiy tasavvur nazariyasi va R.Arnxeymning vizual tafakkur ta'limoti tadqiqotning psixologik-pedagogik poydevorini shakllantiradi.

Kompozitsiya o'qitishning pedagogik-psixologik asoslari tahlili shuni ko'rsatdiki, G'arb pedagogikasida individuallik, eksperiment va fasilitatorlik ustunlik qilsa, Sharq pedagogikasida ustoz-shogird an'anasi, akademik mahorat va an'anaviy qoidalarga rioya asosiy o'rinni egallaydi. R.Arnxeym ta'kidlaganidek, «ko'rish — bu tushunishdir»; kompozitsiyadagi muvozanat, shakl va makon munosabatlari psixologik ehtiyoj sifatida namoyon bo'ladi. V.S.Kuzin esa kompozitsion faoliyatni «ijodiy tasavvur» jarayoni bilan bog'lab, kuzatuvchanlikni eng muhim shart deb hisoblagan.

Tadqiqot doirasida «kompozitsion kreativlik» tushunchasining ishchi ta'rifi formulalandi: kompozitsion kreativlik — bu vizual idrok, assotsiativ-mantiqiy fikrlash va raqamli badiiy savodxonlik birligiga asoslangan integrativ intellektual-ijodiy qobiliyat bo'lib, u talabani

1 UNESCO. (2021). Reimagining our futures together: a new social contract for education. Paris: UNESCO.

<https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000379707>; OECD. (2022). Thinking Outside the Box: The PISA 2022 Creative Thinking Assessment. OECD Publishing. <https://www.oecd.org/pisa/innovation/creative-thinking/>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son. <https://lex.uz/docs/4545884>.

3 Muslimov N.A., Usmonbaeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Pedagogik texnologiyalar. –T.: «Sano-standart», 2015. – 280 b.



kompozitsion muammoni mustaqil anglash, nostandart vizual yechimlarni topish va ularni badiiy ifodali shaklga keltirish jarayonida namoyon bo'ladi.

Pedagogik modelning to'rt blokli arxitekturasi

Ilmiy-nazariy tahlillar asosida kompozitsiya fanini zamonaviy metodikalar vositasida tashkil etish orqali talabalarning kreativligini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. Model to'rt o'zaro bog'liq blokdan iborat.

Birinchi blok — motivatsion-maqсадli. Talabada kompozitsiya faniga nisbatan ichki ehtiyoj, kasbiy qiziqish va ijodiy o'zini namoyon qilish istagini shakllantirish vazifasini bajaradi. Bunda kompozitsiyani «qoidalarni yodlash fani» sifatida emas, balki fikrlash, tanlash, his qilish va ifodalash maydoni sifatida anglashga erishish muhim hisoblanadi. Motivatsiyani kuchaytiruvchi vositalar sifatida muammoli savollar, vizual tahlil va mashhur rassomlar asarlarining kompozitsion yechimini qiyosiy tahlil qilish qo'llaniladi.

Ikkinchi blok — mazmuniy. Kompozitsiyaning asosiy kategoriyalari — kompozitsion markaz, muvozanat, ritm, kontrast, nisbat, format, siluet, rang uyg'unligi — faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki ijodiy qaror qabul qilish instrumentlari sifatida o'rgatiladi. N.N.Rostovsev, V.S.Kuzin va S.P.Lomovlarning darslik va qo'llanmalari klassik metodikani shakllantirgan bo'lsa, respublikamizda R.Hasanov, B.B.Boymetov va S.S.Bulatovlar milliy badiiy ta'lim an'alarini ilmiy asoslashga muhim hissa qo'shgan.

Uchinchi blok — protsessual-texnologik. Modelning eng faol qismi bo'lib, unda an'anaviy ustoz-shogird yondashuvi interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, vizual tahlil, kreativ laboratoriya topshiriqlari, rekonstruktiv mashqlar va raqamli resurslar bilan uyg'unlashtiriladi. UNESCO Seul kun tartibida san'at ta'limida innovatsion pedagogikalar va raqamli muhitlar bilan integratsiyani kuchaytirish zarurligi alohida ta'kidlangan, bu esa modelning xalqaro tendensiyalarga mosligi dalilidir.

To'rtinchi blok — natijaviy-diagnostik. Kreativlik darajasi uchta mezon asosida baholanadi: kognitiv mezon (nazariy bilimlarni anglash va tahlilda qo'llash qobiliyati), emotsional-ijodiy mezon (assotsiativ fikrlash, originallik, obrazli tafakkur) va amaliy-faoliyat mezoni (mustaqil qaror qabul qilish, ko'p variantlilik, kompozitsion yaxlitlik). Talaba kreativligi uchta daraja bo'yicha diagnostika qilinadi: past (0–20 ball), o'rta (21–40 ball) va yuqori (41–60 ball).

Interfaol metodlarning kompozitsiya mashg'ulotlarida qo'llanilishi

Modelning protsessual-texnologik blokida oltita interfaol metod qo'llanildi. Ularning har biri talabaning kreativligini rivojlantirishning muayyan aspektiga yo'naltirilgan.

Vizual ramka metodi — talabaga murakkab fotosurat beriladi va u qog'ozdan qirqilgan «Г» shaklidagi burchaklar yordamida uch xil kompozitsiyani — vertikal, gorizontaal va diagonal —



kadrlab ko'rsatadi. Bu metod «tanlash san'ati»ni (seleksiyani) shakllantiradi, kreativlikning eng muhim belgisi bo'lgan variantlilik va dalillangan tanlov ko'nikmasini rivojlantiradi.

Xatoni toping metodi — talabaga ataylab xato ishlangan kompozitsiyalar taqdim etiladi: zerikarli simmetriya, tartibsizlik, kompozitsion balansning buzilishi. Talaba qaysi qonuniyat buzilganini aniqlashi, sababini tushuntirishi va yaxshilash variantini taklif qilishi kerak. Bu diagnostik-tahliliy ko'nikmani shakllantiradi.

Rekonstruksiya metodi — talaba xatoni topibgina qolmay, qog'ozda chizib yechim beradi. Diagnostikadan amaliy harakatga o'tish, «rassom ko'zi»ni shakllantirish bu metodning pedagogik maqsadidir.

Keys-stadi — aniq vaziyatlar (natyurmort, manzara, portret) bo'yicha kompozitsion qaror qabul qilish va asoslash mashqlari. Talaba nazariy bilimlarini real amaliy vaziyatda qo'llashga o'rgatiladi.

Aqliy hujum — bir mavzuga 3 xil yechim taklif qilish, vizual metaforalar yaratish orqali divergent fikrlash malakasi rivojlantiriladi. J.Gilford ta'kidlagan «bir muammoga ko'p yechim topish» tamoyili bu metodning ilmiy asosidir.

Refleksiv muhokama — har bir ish so'ngida talaba «Men nimadan boshladim va qayerga keldim?» savoliga javob beradi. Bu ongli tanlov va dalillangan baholash ko'nikmasini shakllantiradi.

Bu metodlar tizimli metodik siklga asoslangan: muammo qo'yiladi → variantlar ishlab chiqiladi → tahlil qilinadi → teskari aloqa olinadi → qayta ishlanadi → himoya qilinadi. Natijada talabaning ijodiy jarayoni «tasodifiy ilhom»ga emas, boshqariladigan metodik siklga tayanadi. IDEO va Riverdale Country School tomonidan ishlab chiqilgan «Design Thinking for Educators» resurslari ham aynan shu — jarayon, metodlar va muammoga yangicha qarash tamoyilini urg'ulaydi.⁴

G'arb va Sharq pedagogik yondashuvlarining integratsiyasi

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, G'arb pedagogikasida individuallikni rivojlantirish, eksperiment va J.Dyunining «tajriba orqali o'rganish» (learning by doing) tamoyili ustunlik qiladi. Sharq va MDH pedagogikasida esa L.Vigotskiyning «Faoliyat nazariyasi», akademik maktab tizimi va ustoz-shogird an'anasi asosiy o'rinni egallaydi. G'arbda kreativlikni baholashda g'oyaning yangiligi va originalligi eng yuqori baholansa, Sharqda ijroning mahorati va tugallanganligi qadrlanadi.

⁴ Sawyer, R. K. (2018). Teaching Creativity in Art and Design Studio Classes: A Systematic Literature Review. Educational Research Review. <https://doi.org/10.1016/j.edurev.2017.07.002>; Winner, E., Goldstein, T. R., & Vincent-Lancrin, S. (2013). Art for Art's Sake? The Impact of Arts Education. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/9789264180789-en>



Dissertatsiyada ilgari surilgan integrativ yondashuv aynan shu ikkala maktabning eng yaxshi jihatlarini birlashtiradi: milliy ustoz-shogird an'anasining chuqur falsafiy-axloqiy negizini saqlab qolgan holda, G'arbning erkin ijodiy fikrlashga undovchi interfaol texnologiyalari va raqamli vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi. O'zbekiston tasviriy san'ati ta'limida P.P.Benkov, O'.Tansiqboyev va R.Ahmedov kabi ustozlarning pedagogik qarashlari ham aynan «hayotiylik» qonuniga urg'u berib, kompozitsiyani faqat texnik qurilish emas, balki «g'oyaviy-tarbiyaviy» vosita sifatida ko'rgan.

Xulosa

Tadqiqot natijalarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Birinchidan, kompozitsiya fanini zamonaviy metodikalar vositasida tashkil etish orqali talabalarning kreativligini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. Model to'rt o'zaro bog'liq blokdan iborat bo'lib, motivatsion-maqsadli, mazmuniy, protsessual-texnologik va natijaviy-dagnostik komponentlarni o'z ichiga oladi.

Ikkinchidan, oltita interfaol metodning (vizual ramka, xatoni toping, rekonstruksiya, keystadi, aqliy hujum, refleksiv muhokama) kompozitsion kreativlikni rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslandi. Bu metodlar reproduktiv faoliyatdan produktiv-ijodiy faoliyatga o'tishning metodik poydevorini yaratadi.

Uchinchidan, G'arb va Sharq pedagogik maktablarining eng yaxshi jihatlarini birlashtiruvchi integrativ yondashuvning samaradorligi ko'rsatildi. Bu yondashuv milliy badiiy ta'lim an'anasini saqlab qolgan holda zamonaviy vizual madaniyat sharoitidagi kreativ moslashuvchanlikni oshirish imkonini beradi.

Ishlab chiqilgan pedagogik model va interfaol metodlar tizimi oliy ta'limning «Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi» ta'lim yo'nalishi «Kompozitsiya» fani o'quv jarayonida bevosita qo'llanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Guilford J.P. Creativity // American Psychologist. – 1950. – Vol. 5. – P. 444–454.
2. Torrance E.P. Guiding Creative Talent. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1962.–278 p.
3. Torrance E.P. Torrance Tests of Creative Thinking. – Bensenville, IL: Scholastic Testing Service, 1974.
4. Bogoyavlenskaya D.B. Psixologiya tvorcheskikh sposobnostey. – M.: Akademiya, 2002–320 s.
5. Maslow A.H. Toward a Psychology of Being. 2nd ed. – New York: Van Nostrand Reinhold, 1968. – 240 p.
6. Csikszentmihalyi M. Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention. – New York: Harper Collins, 1996. – 456 p.
7. Arnxeym R. Art and Visual Perception: A Psychology of the Creative Eye. – Berkeley: University of California Press, 1954. – 408 p.
8. Itten J. Design and Form: The Basic Course at the Bauhaus.–New York: Reinhold, 1975–190 p.



9. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirishning pedagogik texnologiyasi. – T.: Fan, 2004. – 160 b.
10. Boymetov B.B. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2010. – 248 b.
11. Hasanov R. Tasviriy san'at ta'limida milliy an'analar. – T.: Musiqa, 2008. – 184 b.
12. Xasanova M.Z. Bo'lajak o'qituvchilarda kompozitsiyaga oid kompetensiyalarni rivojlantirish. Ped. fan. nom. dis. – T., 2020. – 156 b.
13. Muratov X.X. Talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish metodikasi. – T.: TDPU, 2018. – 128 b.
14. Shoroxov Ye.V. Kompozitsiya. – M.: Prosveshcheniye, 1986. – 207 s.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni. Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida.
16. Hetland L., Winner E., Veenema S., Sheridan K. Studio Thinking: The Real Benefits of Visual Arts Education. – New York: Teachers College Press, 2007. – 128 p.
17. OECD. Thinking Outside the Box: The PISA 2022 Creative Thinking Assessment. – Paris: OECD Publishing, 2022.
18. Aalto University. For Teachers: Getting Started with Project Based Learning. – Espoo, 2022. // Aalto universiteti rasmiy sayti — loyihaviy ta'lim (PBL) metodikasi bo'yicha o'qituvchilar uchun yo'riqnoma. <https://www.aalto.fi/en/events/for-teachers-getting-started-with-project-based-learning>.
19. UNESCO. Seoul Agenda: Goals for the Development of Arts Education. – Paris: UNESCO, 2010. – 10 p. // UNESCOning Seul kun tartibi — san'at ta'limini rivojlantirish bo'yicha strategik maqsadlar hujjati. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000190692>.

